



NEFT GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY VA MOLIVAVIY AHAMIYATI

Muallif: Axmedov Islombek Utkir o‘g‘li¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17563351>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy ahamiyati milliy iqtisodiyot darajasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasi, byudjet daromadlaridagi ahamiyati, eksport salohiyatini shakllantirishdagi o‘rni hamda neft-gaz tarmog‘ida aksiyadorlik jamiyatlarining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari o‘rganilgan. Neft-gaz sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim tarmoqlardan biri sifatida energiya xavfsizligi, moliyaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: neft-gaz sanoati, iqtisodiy ahamiyat, moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik, energiya xavfsizligi, raqamlashtirish, rentabellik, eksport salohiyati, ESG tamoyillari.

KIRISH

Bugungi kunda neft-gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat energiya resurslarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy manbani ham tashkil etadi. Neft va gaz korxonalarining samarali faoliyati davlat byudjeti daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ichki bozorda energiya xavfsizligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Neft-gaz tarmog‘ida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Neft-gaz tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy tizimda yuqori kapital talablik, texnologik murakkablik va uzoq investsiya davrlari bilan tavsiflanadi; bu esa ularning tashkiliy-iqtisodiy modelida resurslarni uzoq muddatli safarbar etish, risklarni diversifikatsiya qilish va korporativ boshqaruvni institutsional darajada mustahkamlashni taqozo etadi[1]. Shu boisdan, moliyaviy barqarorlikni saqlash nafaqat moliyaviy koeffitsientlar, balki makroiqtisodiy va tovar-xomashyo bozorlari sikllari bilan uyg‘unlashgan boshqaruv qarorlari orqali ta‘minlanadi[2].

Tarmoqning vertikal integratsiya xususiyati korporativ strukturada xolding/subxoldinglar tuzilishi, transfert narxlanish, ichki shartnomalar va kapital taqsimoti jarayonlarini murakkablashtiradi. Bunday arxitekturada pul oqimlari

boshqaruvi, investitsion portfelni bosqichma-bosqich diversifikatsiyalash va loyiha moliyalashtirish asosiy moliyaviy asbob-uskunalar sifatida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Neft-gaz AJlari uchun resurs bazasi barqarorligi (zaxiralar kategoriyasi, qazib chiqarish profili) qiymat yaratish zanjirining bosh omillaridan. Zaxira-ishlab chiqarish nisbati, fond qaytimi va kapital qiymati dinamikasi, o'z navbatida, strategik investitsiya qarorlarini belgilaydi. Zaxiralarni qo'shimcha tekshirish, geologik-ixtisoslashgan xizmatlarni outsorsing qilish va texnologik yangilanishlar barqarorlikni oshiradi.

1-jadval
Neft-gaz tarmog'ida aksiyadorlik jamiyatlarining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari¹

Yo'nalish	Asosiy xususiyatlar
Kapitalga talab	Uzoq muddatli investitsiya, kapital xarajatlar, investitsiya xarajatlari va operatsion xarajatlar, joriy xarajatlar xarajatlari
Vertikal integratsiya	xolding/subxoldinglar tuzilishi, transfert narxlanish, ichki shartnomalar va kapital taqsimoti
Tovar xom-ashyo bozorlari narxlar ta'siri	bozor o'zgarishlariga kuchli ta'sirchanlik
Korporativ boshqaruv	IFRS, ESG mezonlari, dividend siyosati
Innovatsiya va raqamlashtirish	IoT, Big Data, raqamli tvinar

Neft va gaz bozorida narxlarning o'zgaruvchanligi hamda valyuta kurslarining dinamikasi aksiyadorlik jamiyatlari likvidlik siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli, barqaror dividend siyosati yuritish, himoya mexanizmlari sifatida hedjlash vositalaridan foydalanish va kapital adekvatligini turli stress-senariylar asosida baholab borish zarurati paydo bo'ladi. Qisqa muddatda bu vazifa likvidlik zaxiralarini shakllantirish, o'rta muddatda qarz majburiyatlarini qayta ko'rib chiqish, uzoq muddatda esa aktivlar portfelini optimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

Korporativ boshqaruv tizimlari, kichik aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni ta'minlash moliyaviy barqarorlikning institutsional asosini tashkil etadi. Xalqaro standartlarga asoslangan hisobot yuritish, jamoatchilikka ochiq ma'lumotlar taqdim etish va shaffoflik darajasini oshirish orqali kompaniyaning risk darajasi pasayadi va kapital bozorlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Ayniqsa, yirik aksiyadorlik jamiyatlari uchun xalqaro zayomlar va qimmatli qog'ozlar joylashtirishda bu omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ESG mezonlarini korporativ moliyaviy modellarga integratsiya qilish orqali resurslardan samarali foydalanish, karbon izini kamaytirish va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari strategik boshqaruvda asosiy indikatorlarga aylanadi. Bu jarayonda kapital qiymatida ham o'zgarishlar yuzaga keladi: ekologik cheklovlar, yashil moliya instrumentlaridan foydalanish va barqaror investitsiya strategiyalari kompaniya faoliyatini yanada samarali qiladi. ESG ko'rsatkichlarini korporativ KPI tizimiga bog'lash risk va qaytarim muvozanatini yaxshilaydi.

Tarmoqdagi aksiyadorlik jamiyatlari ko'p hollarda xolding tarzida shakllantiriladi. Bunda markaziy kompaniya atrofida servis, logistika, marketing va

¹ Tahlillar natijasida muallif ishlanmasi

neftkimyo kabi yo'nalishlar birlashadi. Konsolidatsiya qoidalari, transfert narxlanish mexanizmlari va ichki kapital bozorlari orqali divizionlar bo'yicha moliyaviy intizom kuchaytiriladi.

Investitsiya jarayonlari uzoq muddatli va katta sarmoya talab qiluvchi xususiyatga ega. Shu sababli, diskont stavkalari o'zgarishiga yuqori sezgirlik kuzatiladi. Loyihalarni baholash jarayonida turli ssenariylar qo'llaniladi, real-options tahlillari va hassoslik xaritalari ishlatiladi. O'rta muddatda esa ogohlantiruvchi indikatorlar va kovenant nazorati moliyaviy inqirozlarning oldini oladi.

Institutsional muhit — litsenziyalar, soliq va bojxona siyosati, eksport-import qoidalari, shuningdek, sheriklik shartnomalari aksiyadorlik jamiyatlari risk profilini shakllantiradi. Milliy qonunchilik va iqtisodiy strategiyalarda korporativ boshqaruv va raqamlashtirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgani moliyaviy barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari va raqamlashtirishning keng qo'llanilishi ishlab chiqarishdan tortib sotuvgacha bo'lgan jarayonlarda xarajatlarni qisqartiradi va pul oqimlari prognozining aniqligini oshiradi. Raqamli modellar, IoT texnologiyalari va ma'lumotlar platformalari orqali ishlab chiqarish jarayonidagi xavflar kamaytiradi va ESG hisobotlari avtomatlashtiriladi.

Qarz siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish moliyaviy barqarorlik uchun muhim hisoblanadi. Valyutalashuv darajasi, foiz risklari va muddat profilini balanslash orqali risklar kamaytiriladi. Shu bilan birga, hedjlash vositalari, kovenantlarga amal qilish va likvid aktivlar portfeli orqali kompaniyaning qarzini qayta moliyalashtirish imkoniyati kengayadi.

Investorlar bilan samarali munosabatlar tizimi kompaniya moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Dividend siyosatidagi barqarorlik, kapital taqsimotining ochiq va izchilligi, ESG majburiyatlari ijrosi orqali aksiyadorlar ishonchi oshadi. Xalqaro fond bozorlarida ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa buy-back dasturlari va gibril moliyaviy instrumentlar kapital strukturasidagi egiluvchanlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, tarmoq miqyosidagi mezonlar — ishlab chiqarish xarajatlari, investitsiya samaradorligi, qayta ishlash marjasi va logistika qiymati kabi ko'rsatkichlar raqobatbardoshlik profilini belgilaydi. Bu ko'rsatkichlarni xalqaro standartlar bilan taqqoslash, portfelni qayta shakllantirish va aktivlarning hayotiy sikl boshqaruvini takomillashtirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Neft-gaz sanoati korxonalari mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmog'i sifatida milliy daromad, eksport salohiyati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalar faoliyatining samaradorligi ularning resurs bazasi, investitsion siyosati, raqamlashtirish darajasi va ESG tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bilan bevosita bog'liq. Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish, kapital tuzilmasini optimallashtirish va shaffof korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali neft-gaz tarmog'ining iqtisodiy va moliyaviy ahamiyatini yanada kuchaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Global Financial Development Report 2020: Bank Regulation and Supervision a Decade after the Global Financial Crisis. – Washington, DC: World Bank, 2020. – 180 p.
2. Global Financial Stability Report: COVID-19, Crypto, and Climate: Navigating Challenging Transitions. – Washington, DC: IMF, 2021. – 156 p.

